

**KURASH SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING
DOLZARB MUAMMOLARI**
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
НАЦИОНАЛЬНОГО ВИДА СПОРТА - КУРАШ**
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

**ACTUAL PROBLEMS
OF THE NATIONAL SPORT - KURASH**
INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

**MATERIALLAR
TO'PLAMI**

2025-YIL 7-8-MAY
MAY 7-8. 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI
XALQARO KURASH ASSOTSIATSIYASI**

**XALQARO KURASH INSTITUTI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**



**KURASH SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАЦИОНАЛЬНОГО ВИДА
СПОРТА - КУРАШ
ACTUAL PROBLEMS OF THE NATIONAL SPORT -
KURASH**

MAY 7-8. 2025

CHIRCHIQ-2025

ISSN:

“Kurash sportini rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami (2025-yil 7-8-may)

Mas’ul muharrirlar:

N.A.Chorshamiyev, P.f.b.f.d.(PhD)., dotsent

F.I. Bobomurodov, P.f.b.f.d.(PhD)., dotsent

Tahrir hay’ati a’zolari

R.M.Matkarimov, O‘zDJTSU rektori, rais;

M.U.Arziqulov, Sport vazirligi bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari, tashkiliy guruh a‘zosi;

Sh.S. Mirzanov, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, tashkiliy guruh a‘zosi;

Sh.Sh.Gaziyev, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, tashkiliy guruh a‘zosi;

E.T.Raxmanov, O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, tashkiliy guruh a‘zosi;

Sh.Ergashov, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, tashkiliy guruh a‘zosi;

Sh.S.Yoldashov, Tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi boshlig‘i - tashkiliy guruh a‘zosi

A.B.Jumaniyazov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i - tashkiliy guruh a‘zosi

I.M.Sarimsaqov, Universitet jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi boshlig‘i -tashkiliy guruh a‘zosi

N.A. Chorshamiyev, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası mudiri, tashkiliy guruh rais o‘rinbosari (moderator);

T.S.Usmonxo‘jayev, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası professori - tashkiliy guruh a‘zosi (koordinator)

Sh.A. Mirzokulov, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası professori, tashkiliy guruh a‘zosi;

Sh.Kurbanov, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası dotsenti, tashkiliy guruh a‘zosi;

Sh.E. Keldiyorov, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası professori, tashkiliy guruh a‘zosi;

F.I. Bobomurodov, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası dotsenti, tashkiliy guruh kotibi;

Sh.S.Mirzanov, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası katta o‘qituvchisi, tashkiliy guruh kotibi;

H.Musulmonov, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası katta o‘qituvchisi, tashkiliy guruh kotibi;

Q.Q.Rasulov, Milliy kurash turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrası katta o‘qituvchisi, tashkiliy guruh kotibi;

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Ilmiy Kengashining 2025-yil “12”-martdagi 128-I/CH-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali

© Mualliflar

YAKKA KURASHCHILARNI MUSOBAQA OLDI FAOLIYATINI NAZORAT ETISH ZARURATI XUSUSIDA

Ilmiy rahbar: Akram Abdulaxatov.

Chirchiq davlat pedagogika pedagogika universiteti,
Chirchiq (O'zbekiston) Elektron pochta: a.abdulaxatov@cspu.uz
Tel. +998949528282

Muxibiddinov Samariddin

Chirchiq davlat pedagogika pedagogika universiteti,
Jismoniy madaniyat yo'nalishi JM 22.2 guruh talabasi.

Kalit so'zlar: Musobaqa faoliyati, sport, kurashchilar, ko'rsatkichlar, texnik-taktik mahorat, mutaxassislar, rejalashtirish.

Ключевые слова: Соревновательная деятельность, спорт, борцы, показатели, технико-тактическое мастерство, специалисты, планирование.

Key words: Competitive activity, sport, wrestlers, indicators, technical and tactical skills, specialists, planning

Dolzarblik. Sportda musobaqa faoliyatini tadqiq etish muammosi zamonaviy sport nazariyasining ajralmas qismiga aylangan. Musobaqalar va bahslarsiz sport o'z mohiyatiga ega emas. Mavzuga doir bo'lgan aksariyat ilmiy adabiyotlarda musobaqa faoliyatini tadqiq etish mashg'ulotlar tizimini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Bugungi kunda, so'zsiz "musobaqa faoliyati" tushunchasi sport nazariyasi va sport musobaqalari nazariyasining ajralmas bir qismiga aylangan. Shu sababdan yetakchi mutaxassislar va olimlar "tayyorgarlik-musobaqa" aloqadorligi masalasiga alohida e'tibor qaratishmoqda. Mazkur fikrlar o'z navbatida biz tomonimizdan maqola mavzusi sifatida tanlangan masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Sport kurashlari bo'yicha yetakchi mutaxassislar tomonidan musobaqa faoliyatini tadqiq etish yuzasidan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu o'rinda R.A.Piloyan, Ya.K.Koblev, Yu.A.Shaxmuradov, K.S.Sariev, M.Yu.Inyakin kabi olimlarning tadqiqot ishlari alohida ahamiyatlidir. Alohida ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekistonda ham mazkur masala mutaxassislar e'tiboridan chetda qolgani yo'q. F.A.Kerimov, R.D.Xalmuxammedov, A.N.Abdiev, A.Atoev kabi olimlar yakkakurashchilar tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirganlar.

Xorijiy olimlar (Segedi I., Franchini E., Sterkowicz S, Miarka B. va boshq.) tomonidan yakkakurashchilar musobaqa faoliyatini tadqiq etish borasidagi izlanishlar alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy-pedagogik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yakkakurashchilar tayyorlash masalasi bevosita musobaqa faoliyati xususiyatlari bilan aloqador.

Maqola maqsadi sifatida yakkakurashchilar musobaqa faoliyatini tadqiq etish zarurati va ahamiyatini yoritib berish belgilab olindi. Mazkur masalani

yoritishda mazuga doir maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi, yakkakurashchilar musobaqa faoliyatini kuzatish, murabbiylar hamda sportchilarning fikrlarini o'rganish **vazifalari** amalga oshirildi.

Maqola mavzusini o'rganishda adabiyotlar tahlil qilish, pedagogik kuzatish, nazariy tahlil va umumlashtirish **tadqiqot uslublari** qo'llanildi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi.

Mavzu yuzasidan olib borilgan kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, yakkakurashchilar musobaqa faoliyati bevosita tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi ekan. Mavzuga doir bir qancha adabiyotlardagi ma'lumotlarni umumlashtirish, murabbiylar va sportchilarning mazkur mavzu bo'yicha fikrlarini o'rganish hamda musobaqalarni (shahar, viloyat va Respublika miqyosidagi) bevosita kuzatish musobaqa faoliyatini har tomonlama o'rganish ahamiyatli ekanligini to'laqonli tasdiqlaydi.

Kuzatishlar va tahlillar natijasida shu narsa aniqlandiki, bellashuv jarayonida sportchi tomonidan xilma-xil texnik-taktik harakatlar amalga oshiriladi. Mazkur jihat musobaqa faoliyatini tadqiq etish masalasini yetarlicha murakkablashtiradi. Yakkakurashchilarning mahorat darajasi va tayyorgarlik holati usullarni (yoki texnik harakatlar) samarali qo'llash imkonini beradi.

Sport kurashlari, xususan, kurash, dzyu-do, sambo kabi sport turlari rivojlanishining zamonaviy davrida bir qancha o'zgarishlar amalga oshayotganligi ma'lum. Bellashuv vaqtining o'zgarishi, sportchilarning yosh ko'rsatkichlari va sportchilar tayyorlashning yangicha yondashuvlari shular jumlasidan, albatta. Yuqoridagi kabi o'zgarishlar yakkakurashchilar musobaqa faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, tabiiy. O'z navbatida musobaqa faoliyatining o'zgarishi yakkakurashchilar tayyorlagarligini musobaqa faoliyati talablari darajasida tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Sportdagi progress musobaqalar sonining ortishiga ham olib keldi. Nafaqat, yakkakurashda, balki boshqa sport turlarida ham so'nggi yillarda musobaqalar sonining ortishi kuzatilmoqda.

Adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra 1980-1990 yillar mobayonida yillik musobaqalar soni qilichbozlikda – 10-15ta, erkin kurashda-20-25ta, kurash va dzyu-doda 10-15 tani tashkil etgan bo'lsa, 1991-2000 yillar mobaynida musobaqalar soni mos ravishda 20-25, 25-30 va 20-25 tani tashkil etishini aniqlangan. Shu bilan birga yillik tayyorgarlik jarayonida shug'ullanish vaqti ham ortib borganligi mutaxassislar tomonidan aniqlangan. Yillik tayyorgarlik mobaynida mashg'ulot vaqti bir qancha sport turlarida 800 -1000 soatdan (1980-1991 yillar) 1000-1200 soatgacha oshganligi (1991-2000 yillar) ko'rsatib o'tilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, yakkakurashchilar musobaqa faoliyati ularning mashg'ulot jarayonini rejalashtirish bilan uzviy bog'liq ekan. Musobaqalar soni ortib borgan sari tayyorgarlik jarayoni uchun sarflanadigan vaqt ham ortib boradi.

Sport kurashlari taraqqiyotining bugungi davrlarida ham musobaqa faoliyatini tadqiq etish muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Bu o'rinda ko'p

sonli tadqiqot ishlari va mutaxassislarning izlanishlari natijalari fikrimizni tasdiqlaydi.

Xulosa. Biz tomonimizdan olib borilgan kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki yakkakurashchilar tayyorlash tizimida musobaqalarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Musobaqa faoliyatini tadqiq etish zarurati va ahamiyatini quyidagicha tavsiflash mumkin. Musobaqa faoliyatini tadqiq etish sportchining joriy holati, uning kamchiliklari va yutuqlarini aniqlash imkonini beradi. Musobaqa faoliyatini tadqiq etish kuchli sportchilar musobaqa faoliyati modelini ishlab chiqish va tayyorgarlik jarayoni istiqbollarini belgilab beradi. Sportchining mahorati, musobaqa imkoniyati va tajribasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilov A.N, Bagdasarov A.Yu, Arslonov Sh.A. Dzyu-do nazariyasi va uslubi. T. 2012.
2. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Darslik. – T., 2004.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubi. Darslik. – T., 2007.
4. Nurshin J.M., Salomov R.S., Kerimov F.A. O'zbekcha milliy sport kurashi. T. 1993.
5. Arslonov Sh.A. Dzyu-do. *O'quv qo'llanma.*
6. Axmedov F.Q. Abdulaxatov A.R. "O'zbek kurashi-milliy va umuminsoniy qadriyat durdonasi" T. 2017 y.

124	N.Raximova., U.Abdullayeva SHAXS VA ASAB TIZIMINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA DZYUDOCHI QIZLARINING INDIVIDUAL USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH	477-478
125	R.T.Zokirov., N.B.Ravshanova SPORTCHILARDA BESHTA ASOSIY SIFATNI KENGAYTIRISH VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH	479-483
126	I.J.Maxamatov., N. B.Ravshanova SPORTCHILARDA KUCH SIFATINING DINAMIKASINI KUZATISH: AMALIY VA ILMIY YONDASHUVLAR	484-489
127	S.Q.Karimov Mashg'ulot vazifalarini modellashtirish kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish usuli sifatida	490-494
128	S.D.Abduraximov., S.X.Rahmatillayev O'QUVCHILARNING FUTBOL BO'YICHA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK TOMONLARINI O'RGANISH MUAMMOLARI	495-497
129	G.A.Ma'murbekova OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ZAMONAVIY SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI YO'LGA QO'YISH	498-500
130	T.Omorov., J.Uson uulu., T.Satiyev THE ISSUE OF TRAINING JUDO ATHLETES	501-504
131	U.Abdullaeva., S.Sapargeldiyeva SPORTCHI AUTOPSIXOTRENINGI	505-507
132	Z.O'.Rasulov KO'NGILOCHAR SPORT TADBIRLARIDA ESTETIK TAJRIBA HODISASI	508-512
133	П.П.Бабажанов ВКЛЮЧЕНИЕ БОРЬБЫ В ПРОГРАММУ ПРЕСТИЖНЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ И ОЛИМПИЙСКИХ ИГР: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	513-516
134	Kanimbu Duyshonali kyzy, A. Zholdoshev, N. Ismailova THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION IN PROMOTING A HEALTHY LIFESTYLE AMONG THE POPULATION	517-519
135	A.Abdulaxatov, S.Muxibiddinov YAKKA KURASHCHILARNI MUSOBAQA OLDI FAOLIYATINI NAZORAT ETISH ZARURATI XUSUSIDA	520-522
136	B. M.Nazarov SPORT MASHQI (TRENIROVKASI) VA UNING ASOSIY TOMONLARI	523-526
137	A.R.Abdulaxatov., S.U.Tolibayev YOSH KURASHCHILARDA YUZAGA KELADIGAN STRESS HOLATINI O'RGANISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI	527-531
138	A.R.Abdulaxatov., Z.A.Jamolova KURASH, SPORT, QADRIYAT, MANAVIYAT VA TARBIYA VOSITASI SIFATIDA	532-534
139	A.Abdulaxatov., D.Babadjanova JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING TARBIYAVIY IMKONIYATLARI (KURASH SPORT MISOLIDA)	535-538
140	A.Abdulaxatov., J.Saparov KURASHNING SHAXS TARBIYASIDAGI O'RNI, UNING PEDAGOGIK AHAMIYATI	539-544
141	A.R.Abdulaxatov., D.F.Nodiraliyev TA'LIM VA TARBIYADA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI UYG'UNLASHTIRISH MASALALARI	545-547
142	A.R.Abdulaxatov KURASH SPORT TURINING QOIDALARINI TALABA YOSHLARGA O'RGATISHDA MUAMMO, YECHIMLAR	548-553